

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

2-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 2 (6) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida) .....	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI .....	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVALTCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI .....	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH .....	76-87

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI .....	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI .....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaaxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI .....	127-130
<b>10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI .....	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI .....	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR .....	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI .....	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI .....	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI .....	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ .....	204-212
--	---------

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD" .....	219-226
<i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА .....	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ .....	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIISH SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI .....	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI .....	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI .....	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA .....	295-301



<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH .....	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI .....	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI .....	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI .....	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI .....	359-367
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI .....	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH .....	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH .....	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI .....	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	448-453

**Received:** 15 January 2026  
**Accepted:** 2 February 2026  
**Published:** 14 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF SUPPLY CHAIN AND LOGISTICS CONTROLLING IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN INTERNATIONAL TRADE RELATIONS**

**Khudaiberdiev Otabek Absalomovich**

Associate Professor, Namangan State Technical University

**Abstract.** This article examines the challenges and opportunities of improving logistics management in entrepreneurial activities operating within the framework of international trade relations. In the context of globalization, increasing complexity of international supply chains, and growing external economic risks, the efficiency of entrepreneurial activity largely depends on the transparency, adaptability, and controllability of logistics processes. The study explores the concept of the Supply Chain Digital Twin (SCDT) as an advanced managerial tool for enterprises engaged in international trade, particularly within network retail and globally integrated supply chains. The paper analyzes a digital supply chain architecture based on the SCDT approach across strategic, tactical, and operational levels, emphasizing the role of logistics controlling in international trade operations. The integration of digital twin technologies with the Internet of Things (IoT), big data, and predictive analytics enables real-time monitoring, forecasting, and optimization of logistics processes. The findings demonstrate that the application of SCDT and logistics controlling significantly contributes to risk reduction, cost optimization, and service quality improvement for entrepreneurial entities involved in international trade. The proposed approach enhances supply chain resilience and supports informed decision-making in a volatile global business environment.

**Keywords:** entrepreneurship, international trade relations, supply chain management, logistics controlling, digital twin, Supply Chain Digital Twin (SCDT), network retail, digital logistics, global supply chains, risk management.

## **XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI**

**Xudayberdiyev Otabek Absalomovich**

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti,

E-mail: [khudayberdievotabek@umail.uz](mailto:khudayberdievotabek@umail.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro savdo munosabatlari sharoitida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarida logistika boshqaruvini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Globallashuv, xalqaro ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi hamda tashqi iqtisodiy faoliyatda yuzaga kelayotgan risklar sharoitida tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan logistika jarayonlarining shaffofligi, moslashuvchanligi va boshqaruvchanligiga bog'liq ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqotda ta'minot zanjirining raqamli egizagi (Supply Chain Digital Twin – SCDT) konsepsiyasi xalqaro savdoda ishtirok etuvchi tarmoq chakana savdo va tadbirkorlik subyektlari logistikasini boshqarishning zamonaviy vositasi sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada ta'minot zanjirining raqamli egizagi asosida shakllantirilgan ta'minot zanjiri arxitekturasi strategik, taktik va operatsion darajalarda tahlil qilinib, logistika kontrollingi tizimining xalqaro savdo munosabatlaridagi ahamiyati yoritilgan. Raqamli egizak texnologiyalari, IoT, katta ma'lumotlar va prediktiv analitika yordamida logistika jarayonlarini monitoring qilish, prognozlash va optimallashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari xalqaro savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarida risklarni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda SCDT va logistika kontrollingi muhim boshqaruv instrumentlari ekanligi ko'rsatilgan.

**Kalit soʻzlar:** tadbirkorlik faoliyati, xalqaro savdo munosabatlari, taʼminot zanjiri boshqaruvi, logistika kontrollingi, raqamli egizak, tarmoq chakana savdosi, raqamli logistika, global taʼminot zanjiri, risklarni boshqarish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N09>

**Kirish.** Tez isteʼmol qilinadigan tovarlarda taʼminot zanjirlarining globallasuvi, tashqi raqobat muhitining tobora murakkablashib va oldindan aytib boʻlmas tus olishi, shuningdek COVID-19 pandemiyasi kabi fors-major holatlar tarmoq chakana savdo sektorida taʼminot zanjirlarining shaffofligi va ishonchliligiga boʻlgan eʼtiborning keskin ortishiga olib keldi. Odatda, taʼminot zanjirlari logistika operatsiyalarini ularning qaysi bosqichda joylashganligiga qarab guruhlaydi. Asosiy logistika biznes-jarayonlarini rejalashtirish va amalga oshirishning har bir bosqichi ichki va tashqi muhit parametrlarini muayyan tarzda idrok etishga asoslanadi [1]. Mazkur vazifani hal etishda raqamli egizaklar (Digital Twin – DT) konsepsiyasidan foydalanish taklif etiladi.

Raqamli egizaklar — bu taʼminot zanjirlarining asosiy samaradorlik koʻrsatkichlarini (KPI) tushunish, prognozlash va optimallashtirish, natijada yanada yuqori biznes natijalariga erishish maqsadida qoʻllaniladigan aktivlar va jarayonlarning dasturiy modellaridir. Raqamli egizaklar uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat: maʼlumotlar modeli, analitik maʼlumotlar yoki algoritmlar majmui hamda bilimlar bazasi. DT konsepsiyasining yuqori salohiyati va taʼminot zanjirlarini optimallashtirish boʻyicha kompleks hamda ishonchli yechimlarning yetishmasligini hisobga olgan holda, ushbu yondashuvdan foydalanish tobora muqarrar tus olib bormoqda.

Taʼminot zanjirining raqamli egizagini (Supply Chain Digital Twin – SCDT) loyihalash taʼminot zanjirining barcha boʻgʻinlarida operatsiyalarni monitoring qilish va raqamli nazoratni amalga oshirish vazifalarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Logistika kontrollingi tizimida SCDT dan foydalanish koʻplab afzalliklarni taʼminlaydi, chunki u taʼminot zanjirining operatsion va moliyaviy maʼlumotlarini integratsiyalash, tarmoq tuzilmasini optimallashtirish, buyurtmalar holatini kuzatish hamda ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarishga yordam beradi. Ushbu afzalliklar taʼminot zanjiri operatsiyalari natijalari va uning ishlashidagi ehtimoliy uzilishlarni oldindan bashorat qilish imkoniyati bilan bogʻliqdir.

SCDT ning real taʼminot zanjirini aniq imitatsion model sifatida aks ettiradi va real vaqt rejimidagi maʼlumotlar hamda tezkor “snapshot”lardan foydalanib, zanjir jarayonlaridagi oʻzgarishlarni prognozlaydi. Shu orqali tahlilchilar va taʼminot zanjirini boshqarish boʻyicha mutaxassislar zanjirning xatti-harakatlarini chuqur tushunish, inqirozli vaziyatlarni oldindan aniqlash va tegishli harakat rejalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega boʻladilar.

**Adabiyotlar tahlili.** Ivanov D. oʻz tadqiqotlarida taʼminot zanjirlarida raqamli egizaklar konsepsiyasini barqarorlik va risklarni boshqarish nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [2]. Muallifning fikriga koʻra, Supply Chain Digital Twin (SCDT) taʼminot zanjiridagi uzilishlar, fors-major holatlar va talabdagi keskin oʻzgarishlarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi. Ivanov SCDT’ni strategik va operatsion qarorlarni qoʻllab-quvvatlovchi imitatsion va prediktiv model sifatida talqin qilgan. Ushbu yondashuv SRO logistika boshqaruvida risklarni kamaytirish va xizmat darajasini barqaror saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tao F., Zhang M. (Digital Twin nazariyasi va sanoat ilovalari). Tao va Zhang raqamli egizaklar nazariyasini ishlab chiqib, ularni ishlab chiqarish va logistika tizimlariga tatbiq etish mexanizmlarini chuqur asoslab bergan [3]. Ularning tadqiqotlarida raqamli egizak real obyekt,

virtual model va ma'lumotlar oqimi integratsiyasiga asoslangan tizim sifatida qaraladi. Mualliflar IoT, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining raqamli egizaklar samaradorligini oshirishdagi rolini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv SRO ta'minot zanjirlarida real vaqt monitoringi va jarayonlarni optimallashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Min H. (Big Data va analitikaga asoslangan ta'minot zanjiri boshqaruvi). Min H. ta'minot zanjiri boshqaruvida katta ma'lumotlar va ilg'or analitik usullarning ahamiyatini yoritgan [4]. Muallifning ta'kidlashicha, Big Data va prediktiv analitika logistika jarayonlarini yanada shaffof, moslashuvchan va samarali qiladi. Min raqamli platformalar orqali zaxiralarni optimallashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mijozlar talabini aniqlash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Ushbu yondashuv SCDT tizimlarining analitik yadrosini shakllantirishda muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Kache F., Seuring S. (Supply Chain Analytics va qaror qabul qilish). Kache va Seuring ta'minot zanjiri analitikasi (Supply Chain Analytics) ni strategik va operatsion boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi asosiy omil sifatida ko'rib chiqadilar [5]. Ularning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar asosida yig'ilgan ma'lumotlar logistika tizimining samaradorligini oshirish bilan birga, boshqaruv qarorlarining sifatini ham yaxshilaydi. Ushbu ilmiy yondashuv SRO logistika boshqaruvida SCDT tizimini joriy etishda kontrolling va monitoring mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Christopher M. (Strategik logistika va ta'minot zanjiri integratsiyasi). Christopher M. ta'minot zanjiri boshqaruvini strategik raqobat ustunligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin qiladi [6]. U logistika jarayonlarining integratsiyasi, tarmoq dizayni va mijozga yo'naltirilganlikni SRO tizimlarining muvaffaqiyati uchun muhim deb hisoblaydi. Christopherning yondashuvi SCDT konsepsiyasi bilan uyg'un bo'lib, raqamli egizaklar orqali ta'minot zanjirining barcha bo'g'inlarini yagona raqamli modelda birlashtirish zarurligini asoslaydi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari, shuningdek tarmoq savdosida kontrollingni amaliy tashkil etish tajribasi nazariy jihatdan asoslangan va amaliy qo'llash uchun ahamiyatli bo'lgan bir nechta konseptual kontrolling tizimlarining mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar kompaniyalarda kontrollingning o'rni va roli masalalari nazoratning ahamiyati, kontrolling bo'limlari funksiyalarining kompaniyaning boshqa tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik darajasi hamda ularning bir-biriga ta'siri bilan bog'liq ilmiy munozaralarning markazida ekanini tasdiqlaydi.

Ta'minot zanjiri logistikasining kontrolling tizimida raqamli egizak quyidagi vazifalarni bajarishda qo'llanilishi mumkin:

- logistika biznes-jarayonlarida tor joylar va kritik hodisalarni aniqlash, bu muammolar jiddiy uzilishlarga olib kelishidan avval ularni bartaraf etish imkonini beradi;
- ta'minot zanjiri dizaynidagi o'zgarishlarni sinovdan o'tkazish va istiqbolli modellarni ishlab chiqish, ya'ni yangi ssenariylarni joriy etishdan oldin ularning samaradorligini baholash;
- tashishlarni rejalashtirish, bunda marshrutlar va harakat jadvali optimallashtirilib, transport xarajatlari kamaytiriladi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshiriladi;
- zaxiralarni optimallashtirish, bu zarur zaxira hajmini aniq hisoblash va tovarlar tanqisligi yoki ortiqchaligidan qochish imkonini beradi;

- kelajakdagi logistika operatsiyalarini prognozlash va sinovdan o'tkazish, bu esa ta'minot zanjirini bo'lajak o'zgarishlarga oldindan tayyorlashga xizmat qiladi;
- ta'minot zanjirining dinamikasi va xatti-harakatlarini tushunish, uning faoliyatini chuqur tahlil qilish va ehtimoliy o'zgarishlarni bashoratlash imkonini beradi;
- logistika infratuzilmasini saqlab turish bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarni tahlil qilish, bu byudjetni samarali taqsimlash va ortiqcha xarajatlardan qochishga yordam beradi;
- logistika risklarini monitoring qilish va kutilmagan vaziyatlarni prognozlash, bunda bashoratli tahlil salbiy oqibatlarining oldini olish va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data), prediktiv analitika kabi texnologiyalar tufayli raqamli egizaklar ta'minot zanjirining jismoniy holatini aks ettirish hamda logistika jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ular paydo bo'lishidan avval aniqlash imkonini bermoqda [7]. Ular real jismoniy muhitga integratsiyalashgan Narsalar interneti (IoT) datchiklariga tayanadi; mazkur datchiklar logistika operatsiyalari va atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida uzatadi. Ushbu ma'lumotlar datchiklar orqali yig'ilib, keyinchalik bulutli muhitda qayta ishlanadi va SRO ta'minot zanjirini monitoring qilish uchun veb-interfeyslar orqali taqdim etiladi.

Ta'minot zanjirlarining logistika kontrollingi tizimida raqamli egizak konsepsiyasining rivojlanishi kontragentlar tomonidan qo'llaniladigan an'anaviy ERP tizimlaridan IoT kabi texnologiyalar asosida asosiy logistika biznes-jarayonlarini optimallashtirish, vizuallashtirish va nazorat qilish imkonini beruvchi tizimlarga o'tish kontekstida ko'rib chiqilishi lozim [8]. Bu esa ta'minot zanjirida tovar oqimlarining kuzatuvchanligi va shaffofligini yanada kuchaytiradi.

Ta'minot zanjirining raqamli egizagini real ta'minot zanjirining batafsil imitatsion modeli sifatida ta'riflash mumkin bo'lib, u o'rta va qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zanjirning xatti-harakati va dinamikasini bashorat qiladi [9]. Hozirgi vaqtda tarmoq chakana savdo uchun SCDT ni ishlab chiqish va joriy etish noyob usullar asosida amalga oshirilmogda, chunki chakana savdo segmentida ta'minot zanjiri raqamli egizagining barcha funksiyalarini to'liq bajarishga qodir yagona universal texnologik platforma mavjud emas. Shunga qaramay, ayrim dasturiy vositalar, jumladan SAP va AnyLogistix, o'z funksional imkoniyatlarini kengaytirishni boshlamogda. Raqamli egizaklarning eng muvaffaqiyatli tatbiqlaridan biri esa DNV GL, NTNU, Rolls-Royce va SINTEF Ocean hamkorligida yaratilgan ochiq modellashtirish platformasi hisoblanadi.

Shuningdek, ta'minot zanjirlari uchun ixtisoslashtirilgan ilovalar ham ishlab chiqilmogda. Zanjir bo'ylab zaxiralarni kuzatish bilan bir qatorda, raqamli egizak texnologiyalari ta'minot zanjirlarining real tarmoq tuzilmalarini modellashtirish hamda xaridorlar xatti-harakatini bashorat qila oladigan modellarni yaratish maqsadida mijozlarga oid ma'lumotlarni identifikatsiyalash uchun qo'llanilishi mumkin. Raqamli egizaklar IoT raqamli sensorlaridan foydalanish, ular orqali yig'iladigan katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) hamda sun'iy intellektning rivojlanishi hisobiga ta'minot zanjirlarini boshqarishda dolzarb axborotni tahlil qilish va undan samarali foydalanish uchun yangi ufqlarni ochib bermoqda [10]. Amaliyotda SCDT texnologiyasi ta'minot zanjirlaridagi operatsiyalarni baholash va optimallashtirishning tez sur'atlarda standart vositasiga aylanib bermoqda.

Raqamli egizaklar logistika sohasida hali keng miqyosda joriy etilmagan bo'lsa-da, ularni qo'llab-quvvatlovchi ko'plab rag'batlantiruvchi texnologiyalar allaqachon mavjud. Xususan, logistika jarayonlarida yuklarning harakatini kuzatish uchun sensorlardan keng

foydalanilmoqda, so‘nggi yillarda esa ushbu texnologiyalar mashinalar va yuk ortish-tushirish uskunalari ham tatbiq etilmoqda. Tarmoq chakana savdo korxonalarida logistika sohasida ochiq API strategiyalaridan tobora ko‘proq foydalanib, bulutli IT-yechimlarga o‘tmoqda.

Korxonalarida o‘z ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish hamda logistika operatsiyalari va jo‘natmalar bo‘yicha tarixiy ma‘lumotlardan yangi bilimlar olish maqsadida mashinaviy o‘rganish va ilg‘or analitik usullarni joriy etmoqda. Logistika mutaxassislarida omborlarda buyurtmalarni komplektlash va transport vositalarini yuklash kabi vazifalar uchun kengaytirilgan (AR), aralash (MR) va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanishni boshladilar, chunki ushbu sohalardan olinadigan ma‘lumotlar ta‘minot zanjirlarida raqamli egizaklarni yaratish uchun ayniqsa mos hisoblanadi.

Raqamli egizaklar ta‘minot zanjirlarining logistika infratuzilmasini loyihalash, ekspluatatsiya qilish va optimallashtirish jarayonlariga, jumladan omborlar, taqsimlash markazlari va kross-doking terminallariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday raqamli egizaklar obyektning uch o‘lchamli (3D) modeli bilan ulangan ombor IT-platfomalarida yig‘iladigan Narsalar interneti (IoT) ma‘lumotlarini, shuningdek zaxiralar va operatsion holatga oid axborotni — har bir mahsulot bo‘yicha hajm, miqdor, joylashuv va talab xususiyatlarini — birlashtiradi.

Raqamli egizaklar yangi obyektlarni loyihalash va rejalashtirishni qo‘llab-quvvatlashi, makondan foydalanishni optimallashtirishga yordam berishi hamda tovarlar, xodimlar va yuk ortish-tushirish uskunalarining harakatini modellashtirishi mumkin. Ombor operatsiyalari davomida raqamli egizak turli avtomatlashtirilgan tizimlardan kelib tushadigan ma‘lumotlar asosida muntazam ravishda yangilanib boradi. Bunday texnologiyalar qatoriga dronlardan foydalangan holda inventarizatsiya tizimlari, robotlashtirilgan yuk ko‘taruvchi va saralovchi qurilmalar, shuningdek tovarlarni avtomatik komplektlash, saqlash va qidirish tizimlari kiradi.

Raqamli egizaklar avtomatlashtirilgan tizimlar unumdorligini qo‘shimcha optimallashtirishga ham xizmat qiladi, xususan, ombor uskunalarining zarur samaradorlik darajasini saqlab qolgan holda energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi. Bunga sensorlardan olinadigan ma‘lumotlar, modellashtirish va monitoring texnologiyalaridan foydalanish orqali erishiladi. 3D-obyektlar formatida taqdim etilgan kompleks ma‘lumotlar ombor xodimlarining mehnat unumdorligini oshirishga ham ko‘maklashadi. Korxonalarida Google Glass Enterprise Edition yoki Microsoft HoloLens kabi mobil qurilmalardan foydalangan holda virtual reallik asosidagi o‘quv vositalari hamda kengaytirilgan reallik orqali ma‘lumotlarni yig‘ish tizimlarini joriy etishlari mumkin; ushbu texnologiyalar allaqachon, masalan, DHL kompaniyasida omborlarida amaliy qo‘llanilmoqda. Tarmoq chakana savdosida logistika va ta‘minot zanjirlarini boshqarish sohasida yakuniy raqamli egizak murakkab tarmoq tuzilmasining modeli (SCDT) sifatida namoyon bo‘lib, u nafaqat savdo va logistika aktivlarini, balki tashqi muhitning barcha muhim parametrlarini, jumladan mijozlarning ish joylarini ham o‘z ichiga oladi. Bunday keng qamrovli raqamli egizak konsepsiyasi hozirgi kunda hanuz yuqori darajada ambitsiyali bo‘lib, uni amalda joriy etish murakkabligicha qolmoqda. Shunga qaramay, to‘liq raqamli egizaklarning ta‘minot zanjirlarida logistika biznes-jarayonlarini nazorat qilish va monitoring qilish vazifalariga qo‘sha oladigan hissasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘minot zanjirlari logistika kontrollingi tizimlarida raqamli egizaklardan foydalanish yetkazib beruvchilarga an‘anaviy logistika kanallarini optimallashtirish imkonini beradi.

Jumladan, mijozlarning joylashuvi, talab modellari va marshrutlardan o'tish vaqti bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalangan holda zaxiralarni saqlash joylari va savdo nuqtalariga yo'naltirilgan marshrutlarni rejalashtirish mumkin bo'ladi. Zamonaviy raqamli egizaklarning (SCDT) aksariyati bugungi kunda foydalanuvchilarga transport jarayonlari, zaxiralarni boshqarish hamda ta'minot zanjirini monitoring qilish kabi logistika parametrlarini nazorat qilish uchun keng ko'lamlı imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

## 1-jadval

**Ta'minot zanjirini boshqarish (OE – Orchestration)**

OE1. Ta'minot zanjiri strategiyasi	OE2. Biznes-qoidalar	OE3. Samaradorlik va uzluksiz takomillashtirish	OE4. Ma'lumotlar va texnologiyalar
OE5. Kadrlarni boshqarish	OE6. Shartnomalar va kelishuvlar	OE7. Tarmoq dizayni	OE8. Me'yoriy-huquqiy muvofiqlik
OE9. Risklarni boshqarish	OE10. Ekologik va ijtimoiy tartibga solish	OE11. Biznes-rejalashtirish	OE12. Segmentatsiya
OE13. Yopiq sikllı ta'minot zanjiri			

OE bloki ta'minot zanjirining institutsional va strategik boshqaruv asosini tashkil etadi. Bu darajada logistika tizimining uzoq muddatli barqarorligi, moslashuvchanligi va raqamli yetukligi ta'minlanadi. Ta'minot zanjiri strategiyasi, biznes-qoidalar, samaradorlik va uzluksiz takomillashtirish kabi elementlar SCDT tizimini maqsadli boshqaruv vositasiga aylantiradi. Ma'lumotlar va texnologiyalar (OE4) bloki raqamli egizakning markaziy yadrosi bo'lib, IoT, Big Data va sun'iy intellekt orqali real vaqt ma'lumotlari bilan ishlashni ta'minlaydi. Risklarni boshqarish, me'yoriy-huquqiy muvofiqlik va yopiq sikllı ta'minot zanjiri (OE13) esa logistika tizimining tashqi muhitga chidamliligini va barqaror rivojlanishini kuchaytiradi.

## 2 jadval

**Rejalashtirish (P – Plan)**

P1. Ta'minot zanjirini rejalashtirish	P2. Buyurtmalarni rejalashtirish	P3. Resurslarni rejalashtirish
P4. Transformatsiyani rejalashtirish	P5. Buyurtmani bajarishni rejalashtirish	P6. Qaytarishni rejalashtirish

2- jadval, rejalashtirish bloki logistikasida prognozlash va oldindan qaror qabul qilish mexanizmini ifodalaydi. Bu darajada talab, buyurtma, resurs, transformatsiya va qaytarish jarayonlari SCDT orqali imitatsion va prediktiv modellar asosida rejalashtiriladi. P bloki SCDT tizimini an'anaviy rejalashtirishdan farqli ravishda dinamik, moslashuvchan va real vaqtga yaqin qarorlarni ishlab chiqishga yo'naltiradi. Aynan ushbu darajada "what-if" ssenariylar, fors-major holatlar va bozor o'zgarishlari sinovdan o'tkazilib, logistika tizimining tayyorgarlik darajasi oshiriladi.



## 3 jadval

## Ijro etish jarayonlari (O–F–S–T–R)

O1. B2C buyurtmalarini boshqarish	O2. B2B buyurtmalarini boshqarish	O3. Ichki buyurtmalarni boshqarish	F1. B2C buyurtmalarini bajarish
F2. B2B buyurtmalarini bajarish	F3. Ichki buyurtmalarni bajarish	S1. Strategik sorsing	S2. To'g'ridan-to'g'ri xarid
S3. Bilvosita xarid	S4. Qaytarishlarni qayta ishlash	T1. Mahsulot transformatsiyasi	T2. Xizmat transformatsiyasi
T3. Texnik xizmat va ta'mirlash	R1. Mahsulotni qaytarish	R2. Xizmatni qaytarish	R3. Ta'mirlash uchun qaytarish

Ijro etish jarayonlari bloki ta'minot zanjirining kundalik operatsion faoliyatini qamrab oladi va SCDT tizimining amaliy samaradorligini namoyon etadi. Buyurtmalarni boshqarish va bajarish (O–F) jarayonlari mijoz segmentlari (B2C, B2B, ichki buyurtmalar) bo'yicha differensial tarzda modellashtiriladi. Ta'minot (S) va transformatsiya (T) jarayonlari yetkazib beruvchilar, xarid kanallari hamda mahsulot va xizmatlarga qo'shimcha qiymat yaratish zanjirini optimallashtiradi. Qaytarish (R) jarayonlari esa reverse logistics va yopiq siklli ta'minot zanjiri tamoyillarini amalga oshirish orqali barqarorlik va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi (3-jadval).

Mazkur jadvallarda logistika boshqaruvining integratsiyalashgan arxitekturasi aks ettirib, ta'minot zanjirini boshqarishda Supply Chain Digital Twin (SCDT) konsepsiyasining amaliy qo'llanilish mexanizmini ochib beradi. Arxitektura uch darajali boshqaruv mantiqi asosida shakllantirilgan: strategik (OE), taktik (P) va operatsion (O–F–S–T–R).

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashtirish, xalqaro savdo munosabatlarining murakkablashuvi hamda tashqi iqtisodiy faoliyatda yuzaga kelayotgan yuqori darajadagi noaniqliklar sharoitida tadbirkorlik subyektlari uchun logistika boshqaruvini zamonaviy raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ta'minot zanjirining raqamli egizagi (Supply Chain Digital Twin – SCDT) va logistika kontrollingi tizimlarining integratsiyalashuvi xalqaro savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida SCDT konsepsiyasi logistika jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, prognozlash va optimallashtirish imkonini beruvchi samarali boshqaruv instrumenti ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Strategik (OE), taktik (P) va operatsion (O–F–S–T–R) darajalarda shakllantirilgan ta'minot zanjiri arxitekturasi xalqaro savdo operatsiyalarida qaror qabul qilish sifatini yaxshilash, risklarni kamaytirish va logistika xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, IoT, katta ma'lumotlar va prediktiv analitika bilan uyg'unlashgan SCDT tizimi tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga moslashuvchanligini oshirib, xizmat ko'rsatish sifati va mijozlar qoniqish darajasini yaxshilaydi. Umuman olganda, SCDT va logistika kontrollingiga asoslangan yondashuv xalqaro savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun logistika boshqaruvida shaffoflik, barqarorlik va samaradorlikni ta'minlovchi muhim ilmiy-amaliy yechim sifatida baholanishi mumkin.

**Takliflar.** Tadqiqot natijalari asosida xalqaro savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- SCDT tizimini bosqichma-bosqich joriy etish. Tadbirkorlik subyektlarida SCDT tizimini dastlab muhim logistika bo'g'inlarida (ombor, transport, buyurtmalarni bajarish) pilot loyiha sifatida joriy etish, keyinchalik esa butun ta'minot zanjiri bo'ylab kengaytirish maqsadga muvofiqdir;

- Logistika kontrollingi va raqamli egizaklarni integratsiyalash. Logistika kontrollingi tizimlarini SCDT bilan uyg'unlashtirish orqali xarajatlar, xizmat sifati va risklarni nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish, xalqaro savdo operatsiyalarida qaror qabul qilish samaradorligini oshirish tavsiya etiladi;

- IoT va Big Data texnologiyalaridan faol foydalanish. Xalqaro savdo jarayonlarida yuklarning harakati, zaxiralar holati va talab dinamikasi bo'yicha real vaqt ma'lumotlarini yig'ish uchun IoT texnologiyalarini keng joriy etish, katta ma'lumotlar asosida analitik va prediktiv modellarni rivojlantirish zarur;

- Risklarni boshqarish va "what-if" ssenariylarni qo'llash. SCDT imkoniyatlaridan foydalangan holda fors-major holatlar, logistika uzilishlari va bozor o'zgarishlari bo'yicha ssenariylarni oldindan modellashtirish va xalqaro savdo risklarini kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir;

- Kadrlar salohiyatini oshirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. Tadbirkorlik subyektlarida logistika va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun SCDT, raqamli logistika va analitika bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi;

- Xalqaro standartlar va barqarorlik tamoyillarini hisobga olish. SCDT va logistika kontrollingi tizimlarini joriy etishda xalqaro logistika standartlari, ESG talablari hamda yopiq siklli ta'minot zanjiri konsepsiyalarini inobatga olish xalqaro bozorlarda ishonchlilikni oshiradi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Queiroz M. M., Telles R., Bonilla S. H. Blockchain and supply chain management integration: A systematic review of the literature // Supply Chain Management: An International Journal. – 2020. – Vol. 25, No. 2. – P. 241–254.
2. Ivanov D. Predicting the impacts of epidemic outbreaks on global supply chains: A simulation-based analysis on the coronavirus outbreak (COVID-19/SARS-CoV-2) // Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review. – 2020. – Vol. 136. – Article 101922.
3. Tao F., Zhang M., Nee A. Y. C. Digital Twin Driven Smart Manufacturing. – London : Academic Press (Elsevier), 2019. – 216 p.
4. Min H. Big data analytics in supply chain management: A critical review // International Journal of Logistics Management. – 2019. – Vol. 30, No. 3. – P. 805–830.
5. Kache F., Seuring S. Challenges and opportunities of digital information at the intersection of Big Data Analytics and supply chain management // International Journal of Operations & Production Management. – 2017. – Vol. 37, No. 1. – P. 10–36.
6. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management: Creating Value-Adding Networks. – 5th ed. – Harlow : Pearson Education, 2016. – 336 p.
7. Bag S., Wood L. C., Mangla S. K., Luthra S. Procurement 4.0 and its implications on business process performance in a circular economy // Resources, Conservation & Recycling. – 2020. – Vol. 152. – Article 104502.

8. Dolgui A., Ivanov D., Sokolov B. Ripple effect in the supply chain: An analysis and recent literature // International Journal of Production Research. – 2018. – Vol. 56, No. 1–2. – P. 414–430.
9. Brinch M. Understanding the value of big data in supply chain management and its business processes // International Journal of Operations & Production Management. – 2018. – Vol. 38, No. 7. – P. 1589–1614.
10. Tjahjono B., Esplugues C., Ares E., Pelaez G. What does Industry 4.0 mean to supply chain? // Procedia Manufacturing. – 2017. – Vol. 13. – P. 1175–1182.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (6) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).